
Rishton tumanida "Xotira muqaddas-inson aziz" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi

Xotira va qadrlash kuni chinakam milliy - umumxalq bayramiga aylandi. Inson bor ekan, xotira muqaddas. Hech kim, hech narsa esdan chiqmaydi. Xalq bugungi tinch-xotirjam zamoni asrab-avaylash, qadriga yetish uchun ham urushni, uning qahramonlarini, g'alabaga munosib hissa qo'shgan hech bir kishini xotirasidan forig' qilmaydi. Xotira - bu eslab qolish, esda saqlash, keyinchalik yodga olishdir. Insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi. Tinchlik, xotirjamlik taraqqiyot garovidir. Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g'oya targ'ibiga bag'ishlangan buyuk milliy ma'naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi. 9-mayni Xotira va qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi. Bugun tuman hokimligi, tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, tuman xalq ta'limi bo'limi, tuman madaniyat bo'limi bilan hamkorlikda 21- sonli musiqa va san'at maktabida "Inson aziz - xotira muqaddas" shiori ostida ma'naviy - ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda tumandagi 20- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchi va o'quvchilari tomonidan tayyorlangan she'r va qo'shiq, sahna ko'rinishlari bilan qatnashdi. Tuman madaniyat bo'limi tomonidan tayyorlangan kuy - qo'shiqlar tadbir ishtirokchilariga xush-kayfiyat bag'ishladi. Tuman Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari so'z olib, qatnashchilarga o'z minnatdorliklarini bildirib, inson, xalq, millat tarixiy xotira bilan tirik, barhayot. Ayniqsa, o'tganlarning xayrli ishlarini yodga olmoq, qadrlamoq biz uchun ham farz, ham qarzdur. Kechagi kun saboqlarini, xalqimiz kelajagi yo'lida jonini fido qilgan insonlarni xotirlash bugungi va ertangi kunimizni qadrlashga o'rgatadi. Xotira bo'lmas ekan, qadrlash ham yo'q. Ushbu tushunchalar mustaqillik davri avlodi uchun o'ziga xos ma'naviy qadriyatga aylandi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, buyuk g'alabani buyuk jasoratli insonlar ta'minlagan va biz, minnatdor avlodlar bu fidoyi yurtdoshlarimizni doimo ulug'laymiz, ularning beqiyos matonati va xotirasi oldida hurmat bilan bosh egamiz.

2022-05-07 06:27:21